

NUMIZMATIKA.TEMURIYLAR VA SHAYBONIYLAR DAVRI
TANGALARI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Mamasaidova Ruxshona Qarshi qizi.
ruyshonamamasaidova518@gmail.com.

Tel: +99944611363.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Usmonov Nurmuhammad Eshmahmat o'g'li
nurmuhammadu06@gmail.com.

Tel: +998903777796.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Xurramov Otabek Tolib o'g'li
otashbekxurramov28@gmail.com

Tel. +998908727203

Annotatsiya: Ushbu maqolani yozishdan maqsad talabalar o'rtasida numizmatika fanini targ'ib qilish, numizmatika bo'yicha aniq va haqqoniy bilimlarini oshirishga qaratiladi. Shuningdek Temuriylar va Shayboniylar davri tangalarini o'rganish orqali ushbu davr ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, harbiy, soliq, savdo-sotiq va pul munosabatlari haqida bilimlarga ega bo'lishimiz mumkin. Bundan kelib chiqib aytaolamizki tarixiy tangalar haqiqiy tarix guvohlaridir.

Kalit so'zlar: Numizmatika, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Samarqand, dinor, fulusiy tangalar, amiriy tangalar Shayboniyxon, Abdullaxon II, Buxoro.

Аннотация: Целью написания данной статьи является популяризация науки нумизматики среди студентов, повышение их четких и точных знаний по нумизматике. Также путем изучения монет периодов Тимуридов и Шайбани получить знания о социальной, экономической, политической, военные, налоговые, торговые и валютные отношения этого периода. Исходя из этого, можно сказать, что исторические монеты являются свидетелями реальной истории.

Ключевые слова: Нумизматика, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Samarqand, dinar, fulusiy monety, amiriy monety Shayboniyxon, Abdullaxon II, Buxara.

Abstract: The purpose of writing this article is to promote the science of numismatics among students, to increase their clear and accurate knowledge of numismatics. Also, by studying the coins of the Timurid and Shaibani period, to gain knowledge about the social, economic, political, military, tax, trade and monetary

relations of this period. we can have. Based on this, we can say that historical coins are witnesses of real history.

Key words: Numismatics, Amir Temur, Mirzo Ulugbek, Samarkand, dinar, Fulusian coins, Amirian coins Shaibani Khan, Abdullah Khan II, Bukhara.

Numizmatika tanga pullar haqidagi fandır. U yunoncha "Numizma" soʻzidan olingan boʻlib tanga maʼnosini bildiradi. Bu termin oʻrta asrlardan eʼtiboran ishlatila boshlandi. Tanga pullar bilan shugʻullanuvchi mutaxassislarining paydo boʻlishi ham shu davrga toʻgʻri keladi. Ular oʻzlarini numizmatlar deb atay boshladilar. Maʼlumki, tanganing ikki: old (avers) va orqa (revers) tomoni bor. Tanganing har ikkala tomoniga ham rasmlar va yozuvlar tushirilgan boʻladi. Rasm va yozuvlar tasvirlangan maydon "tanga maydoni" deb ataladi. Odatda tanga maydoni chiziqli, nuqtali yoki chiziq va nuqtali yo boʻlmasa uzun munchoqqa oʻxshash xoshiya bilan oʻralgan boʻladi. Tanga qirradi "gurt" deb ataladi. [1] Tangalarning old tomonida odatda hokim, shoh yoki imperator yo boʻlmasa biror-bir muqaddas hayvon orqa tomonida esa birorta maʼbuda yoki yozuvlar va tamgʻa tasvirlangan boʻladi. Insoniyat tarixi va madaniyatini oʻrganishda tangalarni ahamiyati katta. Xususan tarix, siyosat, iqtisod, sanʼatshunoslik, mafkura, til, meʼmorchilik, savdo, xalqaro aloqalar bilan bogʻliq boʻlgan muammolarni yechishda muhim rol oʻynaydi. Tangalar boʻlib oʻtgan tarixiy voqealarning sanasi, shoxlar hukmronligi, davlat chegaralari, kiyimlarini oʻrganishda ham katta ahamiyatga ega. Tanga pul zarb etish qachon va qayerda birinchi marotaba ixtiro etilganligi haqida olimlarning ikki xil qarashlari mavjud boʻlib, birinchi guruh olimlari dastlabki tangalar Kichik Osiyo yaʼni Lidiya hududidan mil avv VII asrda zarb qilingan desalar, ikkinchi guruh olimlari esa Egin orolida joylashgan Argos podsholigini koʻrsatadilar. Ammo oxirgi tadqiqotlar natijasiga koʻra birinchi guruh olimlarining nazariyalari toʻgʻri kelmoqda yaʼni dastlabki tangalar Kichik Osiyodagi Lidiya hududida zarb qilingan.

Amir Temur davrida tilla tangalarning 12 turi 1397 -1382 yillari Xorazm bosib olingandan soʻng zarb etila boshlangan. Ayni vaqtda, oltin tangalarda oldin bosilgan "Dinor" soʻzi Temur tangalarida yoʻq edi. Bu vaqtda misdan yasalgan "Fulus" yoki "Fulus tangalari" juda keng tarqalgan edi. Ular asosan Amir Temur nomidan, Samarqand va boshqa bir qator viloyatlardagi katta hajmdagi mayda chakana savdo ehtiyojlarini qondirish maqsadida chiqarilgan. Bu davrda asosan ikki xil pul birligi mavjud boʻlgan: vazni 6 grammlik kumush va 1,5 gramm vaznli tanganing toʻrt dan bir qismiga tenglashtirilgan mayda Miri tangalar chiqarilgan. "Miri" soʻzi Amir Temurning unvoni "Amir" dan kelib chiqqan. [2] Amir Temur mamlakatida 40 dan ziyod tanga chiqaradigan zarbxonalar boʻlgan, bular qatoriga Samarqand, Xorazm, Sultoniya, Tabriz, Sheroz, Isfahon, Xitoy, Darband, Astrobod, Bagʻdod, Kirmon, Mashhad, Boku, Mahmudobod kabi yirik shaharlardagi pul zarb xonalari

kiradi. Shuningdek Amir Temur avlodidan bo'lgan, temuriylar sulolasining yorqin vakili Mirzo Ulug'bek ham o'z davrida tanga pullar islohotini o'tkazgan. Islohatlar quyidagicha edi: 1428-yilda bu vaqtga qadar chiqarilgan kichik qiymatli mis tangalarni ishlatish taqiqlangan, ularni bir muncha vaqt davomida almashtirish imkoniyati mumkun bo'lgan, vaqt o'tgandan so'ng esa Buxorodan tashqari barcha shaharlardagi zarbxonalar yopilgan. Mis tangalar faqat Buxoro shahrida ko'p yillar mobaynida chiqarilgan va Ulug'bek hayotligida ham va uning o'limidan keyin ham savdoni bir xil sharoitda rivojlantirishni ta'minlagan.

Shayboniylar tomonidan o'lkada ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jumladan, 1507-1508, 1529-1530, 1583, 1598 - yillarda pul islohotlari amalga oshirildi. Bu davrda Shayboniylar nomi ko'rsatilgan kumush va mis tangalar faqatgina Abdullaxon II davrida oltin tangalar zarb etilgan. Bularidan biri 1507-1508 - yillarda Shayboniixon tomonidan o'tkaziladigan pul islohatidir. Uning davrida vazni 4,8 gramm bo'lgan kumush tanga o'rniga vazni 5,2 gramm bo'lgan kumush tanga zarb etila boshlanadi. Bu davrda mis tangalar "pul", "qora pul" kabi alohida atamalar bilan nomlangan, bu islohotlar natijasida shayboniylar mamlakatining Samarqand, Buxoro, Marv, Niso, Saraxs, Xitoy, Mashxad, Nishopur va Sabzavor kabi shaharlarda tangalar zarb etiladi. shuningdek shayboniylar naslidan bo'lgan Abdullaxon II ham o'zining pul islohotini o'tkazgan. Uning islohoti kumushning qimmatlashishi davriga to'g'ri kelib, kumush tanganing qadrini ko'tarishga qaratilgan edi. Tanganing kursi 1,5 barobar ko'tarildi. Eski tanga 27 ta mis tangaga teng bo'lsa, yangi tanga 30 ta mis tangaga tenglashdi. [3] Uning davrida Buxoro tangasi boshqa shaharlarda zarb etilgan tangalardan o'zining bezagi, yozuvi va sifati bilan ajralib turgan.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, tangalar haqiqiy tarix guvohlaridir. Biz tangalarni o'rganish orqali o'sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayoti savdo-sotiq va harbiy hayoti haqida aniq bilimlarga ega bo'lishimiz mumkin. Shuningdek, Temuriylar va Shayboniylar davri tangalari bir-biriga o'xshash bo'lib, Shayboniylar o'z tangalarini zarb etishda Temuriylar tangalaridan namuna sifatida foydalanganlar. Bu tangalar orqali hukmdorlar qabul qilgan qonunlar, egallagan hududlari haqida bilib olishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Pidaev "Tangalar davr ko'zgusi" T. 1984. 6-b
2. O. Rahmatullaeva, J. Salomov "Xronologiya va numizmatika" 180-b
3. O. Rahmatullayeva, J. Salomov "Xronologiya va numizmatika" 202-b
4. T. Ernazarova, B. Kochiev "Tangalar o'tmish darakchilari" T. 1977.